



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 506 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari.....	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
	Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna	
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
	Inoyatova Zulfiya Xamdamovna	
	Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
	Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi	
	Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish.....	203
	Kayumov Oybek Achilovich	
	Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
	Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi	
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
	Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna	
	Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarining ijodiy salohiyatini rivojlantirish.....	214
	Rayimova Shahlo Sobirjon qizi	
	STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari.....	217
	Toshev Elbek Choriyevich	
	Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
	Usmanov Botir Allaberdiyevich	
	Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
	Xalilova Dilnoza Furkatovna	
	Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni.....	230
	Xodiyeva Dilrabo Pirimovna	
	Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education.....	233
	Yunusova Nodira Akhmadjanovna	
	Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	237
	Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
	The Psychological Impact of Social Media on Youth.....	242
	Dilfuza Qarshiboyeva	
	Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi.....	246
	Islamova Dilfuza Dilshodovna	
	Dizartriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	250
	Pardayeva Muxlisa	
	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati.....	257
	Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi	
	Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers.....	259
	Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar.....	264
	Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi	
	“Personal learning assistant” vositalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili.....	268
	Muradova Maftuna Komilovna, Turobova Ro'zoy Bekmurotovna, Xayrullayev Mo'minbek Anvar o'g'li	
	Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	272
	Ravshanova Dildora Sagdullayevna	
	Raqamli ta'lim sharoitida elektron axborot-ta'lim muhitining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.....	279
	Temurov Sobirjon Yo'ldoshevich	
	Zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati (boshlang'ich ta'lim misolida).....	283
	Pardaboyev Doston	
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligida qadriyatlar tarbiyasining amaliy asoslari.....	286
	Xaydarova Mavluda Mo'ydinjon qizi	



Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari va samarali shakllari.....	292
<i>G'oziyeva Mohlaroyim Qodirxon qizi</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning (aqliy nuqson) ovqatlanish tartibi	295
<i>Sh. M. Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishda geymifikatsiya o'yini orqali samarali tashkil etish	299
<i>Mergenbaeva Asiya Erkebaevna</i>	
Musiqa o'qituvchisining pedagogik muloqatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	304
<i>S. M. Raxmonberdiyeva</i>	
Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslarida zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish	307
<i>Abdulxamidova Gulnoza</i>	
Ispaniya davlati ijtimoiy hayoti, madaniyati va o'ziga xos ta'lim tizimi	311
<i>Umarova Malika Xisabidinovna, Sabirova Nodira Ibrohimovna</i>	
Ertaklardagi so'zlardan foydalangan holda nutqi rivojlanmagan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi	316
<i>G'opporova Mahliyoxonim</i>	
Tarbiya fanida hadislar va milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	319
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	324
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Mustaqil ta'lim olish faoliyati tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi (fizika fani bo'yicha).....	328
<i>Esanmurodov Otamurod Boboqand o'g'li</i>	
Oliy ta'limda immersiv yondashuvning mohiyati.....	333
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Jontemirova Nozima Abdijabbor qizi</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlari tizimida sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	337
<i>Yigitaliyev A. F.</i>	
Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida o'quvchilarning harakat faolligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari.....	343
<i>D. R. Abdusalomov</i>	
Futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi...	348
<i>Mirbabayev Muzaffar Ismatillayevich</i>	
Empirik tushunchalar va ularning hospital pedagogikadagi pedagogik-psixologik roli	353
<i>Sapayeva Mavluda Shanazarovna</i>	
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash va huquqiy himoya.....	357
<i>Ibragimova Feruza Bahodirxonovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	362
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish	366
<i>Raximov Farxod Maxmudovich</i>	
Haqiqiy materiallardan foydalangan holda o'qishni o'rgatish	370
<i>Axmedov Husen Uzairovich</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion va fiziologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	376
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi.....	380
<i>Nazarov Zokir Abdurahmonovich</i>	
Tafakkur va mantiqiy fikrlash bo'lajak pedagog shaxsining nutq madaniyati omili sifatida	383
<i>A. Sh. Jumayev</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida turizm vositasida tolerantlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	386
<i>Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi</i>	

Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	390
<i>Asobayeva Noila Samatovna</i>	
Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish	395
<i>Axmedova Zebixon Siddikovna</i>	
Talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qo'yilgan pedagogik talablar	399
<i>Boliyev Uchqun Ismatovich</i>	
Translation of Phraseological Units in Mass Media Texts.....	402
<i>Eshmurodova Ziyodaxon Urinbayevna</i>	
Phraseologisms in Modern Russian: A Corpus-Based Analysis of Structural, Semantic, and Functional Dynamics	405
<i>Farkhod Kholmatov</i>	
Yosh sportchilarda sprinterlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin uslubidagi mashqlarning o'rni.....	413
<i>G'oibov Yusufali Buxoraliyevich</i>	
Imitatsion mashqlarni nutqni avtomatizatsiyalash jarayonida qo'llash metodikasi	417
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
1879-1894-yillarda yevropa va aqshdagi asos soluvchi laboratoriyalar evolyutsiyasi orqali eksperimental psixologiya genezisining qiyosiy-tarixiy tahlili.....	420
<i>Haydarov Farhod Ilnazarovich</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	423
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Bolalarda gigiyeniya qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	427
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Kasbiy refleksiya va portfolio metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	430
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna, Kamoliddinova Mahliyoixon Zohidjon qizi</i>	
Практическая работа по развитию логического мышления учащихся начальных классов через дидактические игры	433
<i>Отажонов Ж. М., Мамарасулова М. А.</i>	
Umumta'lim maktablarida "tarbiya" fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolar, ularning sabablari va takomillashtirish yo'llari.....	436
<i>Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna</i>	
Word Formation and Vocabulary Enrichment in Modern English and Uzbek Languages	440
<i>Muminova Feruza Muratdjanovna</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari	443
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlarida refleksiyaning rivojlanishi	447
<i>N. I. Xalilova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	450
<i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvning uyg'unligi	455
<i>O'tkirova Zuhraon Ahmedjanovna</i>	
Developing Listening and Speaking Skills in Middle School	458
<i>Rakhmonova Dilrabokhon Salokhiddin kizi</i>	
Bolalarda gigiyena qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	461
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari.....	464
<i>Umarova Sitora Muxlisovna, Sharifova Mahtob Murodjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	467
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Sofoyeva Oysha Davlatyorovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari.....	470
<i>Solijonova Mavluda Zokir qizi</i>	



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	472
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarning harbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik omillarning o'рни.....	477
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich</i>	
Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirish bo'yicha noan'anaviy jismoniy mashqlarning ahamiyati	480
<i>Xalmatova Nasiba Bozorboyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish muammolari	485
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish ..	488
<i>Yuldoshova Mehriniso Ochildiyevna</i>	
Hosila va uning tatbiqlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	491
<i>Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li</i>	
Развитие речи у детей как ключевой фактор формирования личности.....	496
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Boshlang'ich sinflarda geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	498
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	
Дидактические основы подготовки будущих педагогов к лекционной деятельности.....	501
<i>Нодира Азаматова</i>	

MA'NAViy-MA'RIFIY ISHLAR SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li

A. Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning mazmuni, uning jamiyat taraqqiyoti va yoshlar tarbiyasidagi o'rni, shuningdek, samaradorlikni belgilovchi asosiy mezon va ko'rsatkichlar yoritiladi. Aksiologik, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va sotsiokultural yondashuvlar asosida sohani yangicha tashkil etishning ustuvor tamoyillari ochib beriladi. Shuningdek, maqsadlilik, uzviylik, manzillilik, ijtimoiy hamkorlik, raqamli kommunikatsiya, monitoring va refleksiya kabi metodologik omillarning amaliy ahamiyati asoslanadi. Maqolada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni faqat tadbirlar soni bilan emas, balki shaxsning qadriyatlarini, ijtimoiy faolligi, fuqarolik mas'uliyati va mafkuraviy immunitetidagi o'zgarishlar orqali baholash zarurligi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar, samaradorlik, nazariy yondashuv, metodologiya, aksiologik yondashuv, tarbiya, monitoring, ijtimoiy hamkorlik, mafkuraviy immunitet, qadriyatlar.

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for improving the effectiveness of spiritual-enlightenment work. It clarifies the content of this activity, its role in social development and youth education, and the main criteria used to assess effectiveness. Based on axiological, systemic, person-centered, activity-based, and socio-cultural approaches, the paper substantiates the priority principles for organizing this field in a modern way. It also explains the practical importance of goal orientation, continuity, differentiation, social partnership, digital communication, monitoring, and reflection. The study argues that the effectiveness of spiritual-enlightenment work should be measured not only by the number of events, but also by changes in values, social activity, civic responsibility, and ideological resilience.

Key words: spiritual-enlightenment work, effectiveness, methodology, axiological approach, education, monitoring, social partnership, values, ideological resilience, social activity.

Аннотация: В статье научно анализируются теоретико-методологические основы совершенствования эффективности духовно-просветительской работы. Раскрываются содержание духовно-просветительской деятельности, её роль в общественном развитии и воспитании молодёжи, а также основные критерии и показатели результативности. На основе аксиологического, системного, личностно-ориентированного, деятельностного и социокультурного подходов обосновываются приоритетные принципы организации данной сферы. Показано практическое значение целеполагания, преемственности, адресности, социального партнёрства, цифровой коммуникации, мониторинга и рефлексии. Доказывается, что эффективность духовно-просветительской работы должна оцениваться не только количеством мероприятий, но и изменениями в ценностных ориентациях личности, социальной активности, гражданской ответственности и идеологическом иммунитете.

Ключевые слова: духовно-просветительская работа, эффективность, теоретический подход, методология, воспитание, мониторинг, социальное партнёрство, ценности, идеологический иммунитет, социальная активность.

KIRISH

Globalashuv, axborot oqimlarining keskin ortishi va ijtimoiy ongga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ko'payishi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy ishlar jamiyat barqarorligi hamda shaxs kamolotini ta'minlovchi strategik yo'nalishga aylanmoqda. Mazkur faoliyat endilikda faqat bayramona tadbirlar yoki ma'ruza-muloqotlar majmui sifatida emas, balki insonning qadriyatlar tizimi, fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy mas'uliyati va mafkuraviy immunitetini shakllantiruvchi uzluksiz ta'lim-tarbiyaviy mexanizm sifatida talqin qilinmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda so'nggi yillarda ma'naviy-ma'rifiy sohani institutsional va mazmuniy jihatdan yangilashga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Xususan, 2017-yildagi PQ-3160-son¹ qaror mazkur yo'nalishni yangi bosqichga ko'tarish vazifasini ilgari surgan bo'lsa, 26.03.2021-yildagi PQ-5040-son² qaror tizimni tubdan takomillashtirish, ilmiy tahlil, monitoring va raqamli targ'ibotni kuchaytirish zaruratini belgiladi. 2022-yildagi 558-son³ qaror esa ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirishning aniq usul va shakllarini konseptual jihatdan mustahkamladi.

Biroq amaliyot shuni ko'rsatadiki, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning natijadorligi ko'p hollarda tadbirlar soni, hisobotlar hajmi yoki formal ishtirok darajasi bilan baholanmoqda.

Holbuki, mazkur faoliyatning haqiqiy samarasini shaxsning dunyoqarashi, xulq-atvori, ijtimoiy faolligi, kitobxonlik madaniyati, axborot xurujlariga nisbatan bardoshlilik va jamoaviy munosabatlaridagi ijobiy o'zgarishlar belgilaydi. Demak, soha samaradorligini oshirish uchun uning nazariy kategoriya va metodologik mezonlarini qayta ko'rib chiqish ilmiy zaruratga aylanmoqda. Maqolaning maqsadi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, ushbu faoliyatni tashkil etish va baholashning ustuvor yondashuvlarini tizimlashtirish hamda amaliyot uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TADVIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiylik, tizimli tahlil, qiyosiy yondashuv, kontent-tahlil va interpretatsion tahlil metodlaridan foydalanildi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sohasini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar, strategik dasturlar hamda konseptual yondashuvlar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi. Tahlilda "maqsad", "subyekt", "obyekt", "mazmun", "usul", "shakl", "natija", "indikator", "monitoring", "refleksiya" kabi kategoriyalar metodologik tayanch birliklar sifatida olindi.

Shuningdek, soha samaradorligini baholashda faqat miqdoriy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, sifat o'zgarishlarini ham aniqlashga qaratilgan mezonlar majmui shakllantirildi. Maqolada pedagogika, sotsiologiya, psixologiya, boshqaruv va madaniyatshunoslikdagi yondashuvlar integratsiyasi asosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi kompleks metodologik model taklif etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Avvalo, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligi tushunchasining mazmuni aniqlashtirilishi lozim. Ilmiy nuqtai nazardan samaradorlik – bu qo'yilgan maqsadlarning qanchalik darajada real natijaga aylanganini ifodalovchi kategoriyadir. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyat doirasida u tinglovchi yoki ishtirokchining ongida ma'lum bilimlarning paydo bo'lishi bilangina cheklanmaydi; aksincha, qadriyatlarga munosabat, ijtimoiy xulq, fuqarolik mas'uliyati, hamjihatlik, kitobxonlik, mehnatsevarlik va media savodxonlik kabi ko'rsatkichlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli mazkur sohada "tadbir markazlashgan" yondashuvdan "natija markazlashgan" yondashuvga o'tish muhimdir. Tadbir markazlashgan tizimda asosiy e'tibor o'tkazilgan uchrashuv, seminar, davra suhbat yoki aksiyalar soniga qaratiladi. Natija markazlashgan tizim esa ularning shaxs va jamoa hayotiga qanchalik ta'sir ko'rsatganini aniqlashni talab etadi. Bunday yondashuv mazmuni, metodni va baholash mexanizmini bir butun jarayon sifatida ko'rishga imkon beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning nazariy asoslari, avvalo, aksiologik yondashuv bilan chambarchas bog'liq. Chunki ushbu faoliyatning markazida qadriyatlar turadi. Milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotira, vatanparvarlik, insonparvarlik, bag'rikenglik, mehnat madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat kabi tushunchalar mazkur yondashuvning mazmuniy o'qi hisoblanadi. Aksiologik yondashuv samaradorlikni faqat axborotni yetkazish bilan emas, balki qadriyatlarning shaxs ichki dunyosiga singishi darajasi bilan o'lchashni nazarda tutadi. Tizimli yondashuv esa ma'naviy-ma'rifiy ishlarni maqsad, subyekt, obyekt, mazmun, vosita, tashkiliy muhit va natija birligida ko'rib chiqadi. Agar mazkur bo'g'inlardan biri sust ishlasa, umumiy natija pasayadi. Masalan, mazmun zamonaviy tahdid va ehtiyojlarga mos bo'lmasa, hatto yuqori saviyada tashkil etilgan tadbir ham kutilgan ta'sirni bermaydi. Xuddi shuningdek, monitoring va tahlil mexanizmi bo'lmasa, mavjud tajriba umumlasmaydi va takror xatolar davom etaveradi.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning markaziga konkret insonni qo'yadi. Bu yondashuvga ko'ra, barcha yosh toifalari, kasbiy guruhlar va hududlar uchun bir xil mazmun hamda bir xil usulni qo'llash samara bermaydi. O'quvchi, talaba, uyushmagan yosh, mahalla faoli yoki mehnat jamoasi a'zosi

1 <https://lex.uz/ru/docs/-4071203>

2 <https://lex.uz/docs/-5344692>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-6221555>

uchun ma'naviy ta'sir mexanizmlari bir-biridan farq qiladi. Demak, manzillilik va differensial yondashuv samaradorlikning muhim shartidir. Faoliyatli yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlarni faqat tinglash va kuzatish jarayoni emas, balki faol ishtirok orqali o'zlashtiriladigan tajriba deb hisoblaydi. Bunda munozara, keys-stadi, loyihalar, volontyorlik, kitob klublari, teatr-studiya, intellektual o'yinlar, media mahsulot yaratish, jamoat tashabbuslari va muammoli vaziyatlarni hal etishga yo'naltirilgan mashg'ulotlar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki amaliy ishtirok shaxsda nafaqat bilim, balki pozitsiya va mas'uliyatni ham shakllantiradi.

Sotsiokultural yondashuv ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oila, mahalla, ta'lim muassasasi, ommaviy axborot vositalari va raqamli makon bilan o'zaro aloqada o'rganadi. Bu yondashuvga ko'ra, tarbiyaviy ta'sir birgina auditoriya bilan chegaralanmaydi; u turli ijtimoiy institutlar hamkorligi mahsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham samaradorlikni oshirishning muhim omillaridan biri – maktab, oila, mahalla va jamoatchilik o'rtasidagi uzviy hamkorlikni mustahkamlashdir.

1-jadval: **Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning asosiy nazariy yondashuvlari**

Yondashuv	Mohiyati	Amaliy ahamiyati
Aksiologik yondashuv	Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatning markaziga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qo'yadi; natijani qadriyatlarning shaxs ichki dunyosiga singishi bilan baholaydi.	Shaxsda vatanparvarlik, mas'uliyat, bag'rikenglik va ijtimoiy daxldorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.
Tizimli yondashuv	Maqsad, subyekt, obyekt, mazmun, vosita, muhit va natijani o'zaro bog'liq bo'g'inlar sifatida ko'radi.	Faoliyatni boshqarish, resurslarni muvofiqlashtirish va uzilishlarni aniqlash imkonini beradi.
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	Har bir auditoriyaning yoshi, ehtiyoji, qiziqishi va ijtimoiy tajribasini inobatga oladi.	Bir xil andozadan voz kechib, manzilli va differensial ish olib borishni ta'minlaydi.
Faoliyatli yondashuv	Bilim va qadriyatlar faol ishtirok, amaliy mashg'ulot va tashabbus orqali o'zlashtirilishini nazarda tutadi.	Munozara, loyiha, volontyorlik, media mahsulot yaratish kabi interaktiv usullar samaradorligini oshiradi.
Sotsiokultural yondashuv	Oila, mahalla, ta'lim muassasasi, jamoatchilik va media makonni yagona tarbiyaviy muhit deb talqin qiladi.	Hamkorlikni kuchaytiradi va ma'naviy ta'sirning ijtimoiy qamrovini kengaytiradi.
Kompetensiyaviy yondashuv	Shaxsda tanqidiy fikrlash, muloqot, media savodxonlik, fuqarolik pozitsiyasi kabi amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltiriladi.	Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni hayotiy ko'nikmalar va real xulqiy natijalar bilan bog'laydi.

Nazariy yondashuvlar amaliy mexanizmlar bilan mustahkamlanmaguncha barqaror natija vujudga kelmaydi. Shu bois ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning metodologik asosi bir necha o'zaro bog'liq tamoyillarga tayanishi zarur.

- *Birinchiidan, maqsadlilik tamoyili.* Har bir tadbir, loyiha yoki dastur aniq diagnostika asosida rejalashtirilishi kerak. "Kim bilan?", "nima maqsadda?", "qaysi muammoni bartaraf etish uchun?" va "qanday natijaga erishish ko'zlanmoqda?" degan savollarga oldindan javob topilmasa, faoliyat formal xarakter kasb etadi.
- *Ikkinchiidan, uzviylik va uzluksizlik tamoyili.* Ma'naviy-ma'rifiy ishlar kampaniyabozlikka berilmasligi, kundalik hayot, ta'lim va mehnat jarayoniga singdirilishi lozim. Tizimli ta'sir faqat muntazamlilik mavjud bo'lgandagina barqaror natija beradi.
- *Uchinchiidan, manzillilik va differensiallik tamoyili.* Turli auditoriyalar ehtiyoji, yoshi, ijtimoiy tajribasi, axborot iste'moli madaniyati va hududiy xususiyatlari inobatga olinishi kerak. Ayniqsa, raqamli makonda faol yoshlar bilan ishlashda an'anaviy ma'ruza usuli o'rniga interaktiv, vizual va media vositalarga boy formatlar ko'proq samara beradi.
- *To'rtinchiidan, dialogiklik va ishtirokchilik tamoyili.* Zamonaviy ma'naviy-ma'rifiy ish bir tomonlama targ'ibot emas, balki suhbat, savol-javob, muloqot va hamkorlik asosidagi jarayon bo'lishi zarur. Dialog shaxsning fikrlashini faollashtiradi, shubha va savollarni ochiq muhokama qilish imkonini beradi, bu esa qadriyatlarning ongli qabul qilinishiga xizmat qiladi.
- *Beshinchiidan, monitoring va refleksiya tamoyili.* Samaradorlikni oshirish uchun har bir faoliyat turi yakunida faqat hisobot tuzish emas, balki natijani o'lchash, ishtirokchilarning fikrini olish, muammolarni aniqlash va keyingi bosqichga tuzatish kiritish zarur. Diagnostika, kuzatuv, so'rovnoma, fokus-guruh, portfoliolar, media faollik tahlili va xulq-atvor ko'rsatkichlari bu borada muhim vosita bo'la oladi.



2-jadval: Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini baholashning metodologik mezonlari

Mezon	Asosiy ko'rsatkichlar	Baholash usuli	Kutiladigan natija
Maqsadga muvofiqlik	Tadbir mazmunining muammo va auditoriya ehtiyojiga mosligi	Diagnostika, ekspertiza	Formalizm kamayadi, resurslar aniq maqsadga yo'naltiriladi
Qamrov va ishtirok sifati	Faol qatnashuv, savol-javob, tashabbus ko'rsatish darajasi	Kuzatuv, ishtirok kartasi	Passiv tinglovchi faol ishtirokchiga aylanadi
Mazmun sifati	Mavzuning dolzarbligi, tushunariligi va hayot bilan bog'liqligi	So'rovnoma, fokus-guruh	Mavzular auditoriyaga yaqinlashadi
Aksiologik o'zgarish	Qadriyatlarga hurmat, fuqarolik mas'uliyati, bag'rikenglik	Psixologik-pedagogik monitoring	Ichki e'tiqod va ijobiy munosabat mustahkamlanadi
Xulqiy natija	Intizom, kitobxonlik, jamoaviy madaniyat, ijtimoiy tashabbus	Portfoliolar, kuzatuv, tahlil	Qadriyatlar kundalik xatti-harakatda namoyon bo'ladi
Media immunitet	Tanqidiy fikrlash, zararli axborotni farqlash, raqamli madaniyat	Test, media faoliyat tahlili	Axborot xurujlariga nisbatan bardoshlilik kuchayadi
Hamkorlik darajasi	Oila, mahalla, ta'lim muassasasi va jamoatchilik o'zaro aloqasi	Hamkorlik xaritasi, intervyu	Tarbiyaviy muhitning uzviyligi ta'minlanadi
Refleksiya va korreksiya	Natijalarni tahlil qilish, kamchiliklarni tuzatish mexanizmi	Hisobot, muhokama, qayta rejalashtirish	Faoliyat doimiy ravishda takomillashib boradi

- *Oltinchidan, ijtimoiy hamkorlik tamoyili.* Ma'naviy-ma'rifiy ishlar bir tashkilot doirasida cheklanmasligi, davlat organlari, ta'lim muassasalari, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari, ijodkor ziyolilar, ota-onalar va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi hamkorlik asosida olib borilishi kerak. Hamkorlik kengaygani sari ta'sir maydoni va natijaning barqarorligi ortadi.
- *Yettinchidan, raqamli kommunikatsiya va media xavfsizlik tamoyili.* Bugungi sharoitda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni offlayn uchrashuvlar bilangina cheklash mumkin emas. Qisqa video, podkast, infografika, onlayn klub, virtual muloqot, interaktiv platforma va media mahsulotlar yosh auditoriya bilan ishlashning samarali vositasiga aylanmoqda. Bunda asosiy maqsad axborotni ko'paytirish emas, balki tanqidiy fikrlash va media immunitetni mustahkamlashdan iborat bo'lishi kerak.

Mazkur tamoyillarni yagona sikl ko'rinishida ifodalash mumkin: diagnostika – loyihalash – amalga oshirish – monitoring – refleksiya – korreksiya. Ushbu model ma'naviy-ma'rifiy ishlarni uzluksiz takomillashib boradigan ochiq tizimga aylantiradi.

Eng muhimi, u formal hisobotdan real natijaga o'tish uchun metodologik tayanch vazifasini bajaradi. Samaradorlikni baholashda to'rtta integral darajani ajratish maqsadga muvofiq:

- kognitiv natija, ya'ni bilim va tushunchalarning kengayishi;
- aksiologik natija, ya'ni qadriyatlarga munosabat va e'tiqodiy mustahkamlik;
- xulqiy natija, ya'ni kundalik xatti-harakatlarda ijobiy o'zgarish;
- hamda ijtimoiy natija, ya'ni jamoaviy faollik, tashabbuskorlik va fuqarolik mas'uliyatining ortishi.

Ana shu mezonlar asosida tuzilgan baholash tizimi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni boshqarish sifatini ham oshiradi. Amaliyotda uchrayotgan asosiy muammolar – formalizm, takroriy mavzular, auditoriyaga mos kelmaydigan usullar, ma'lumot va natija o'rtasidagi uzilish, kadrlar malakasidagi tafovut hamda raqamli kontentning sustligi – metodologik yangilanish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shunday ekan, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasini oshirish mazmunni zamon bilan uyg'unlashtirish, subyektlar salohiyatini kuchaytirish va natijani ilmiy o'lchash mexanizmlarini joriy etish bilan bevosita bog'liqdir.

XULOSA

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirish, eng avvalo, mazkur faoliyatni nazariy jihatdan to'g'ri anglash va metodologik jihatdan puxta tashkil etishga bog'liq. Ushbu soha tadbirlar yig'indisi emas, balki shaxs, jamiyat va davlat o'rtasidagi ma'naviy aloqalarni mustahkamlovchi ko'p omilli ijtimoiy-pedagogik tizimdir.

Shu bois uning samaradorligi bilim berish, qadriyat singdirish, xulqni yo'naltirish va ijtimoiy faollikni oshirish kabi ko'p qatlamli natijalar orqali baholanishi lozim.

Aksiologik, tizimli, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatli va sotsiokultural yondashuvlarning uyg'unligi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamonaviy bosqichda takomillashtirishning eng muhim nazariy tayanchi hisoblanadi. Maqsadlilik, uzviylik, manzillilik, dialogiklik, monitoring, ijtimoiy hamkorlik va raqamli kommunikatsiya tamo-yillariga asoslangan metodologik model esa amaliy natijadorlikni oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu yo'nalishda indikatorlar tizimini yanada aniqlashtirish, hududiy kesimda qiyosiy monitoring olib borish, soha xodimlarining metodik kompetensiyasini kuchaytirish va raqamli ma'naviy-ma'rifiy kontent sifatini oshirish muhim ilmiy-amaliy vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-4071203>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/-5344692>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 3-oktabrdagi 558-son qarori. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy hamda tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-6221555>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo'ljallangan 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni. "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 17-sentabrdagi 736-son qarori. Ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/ru/docs/-3909604>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.